

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

O`quv ishlari bo`yicha rektor muovini

_____U.N.Abdiyev

« ARAB TIL »

fanidan ishchi dastur

Bilim sohasi : 100000-Ta'lim

Ta'lim sohasi : 140000- O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika
fani

Bakalavriat yo`nalishlari: 5141100- o`zbek tili va adabiyoti
(kunduzgi va sirtqi bo`lim uchun)

A N G R E N – 2006/2007

A N N O T A T S I Y A

Ushbu dastur pedagogika oliy yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix ixtisosligi talabalari uchun mo'ljallangan. Arab tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari bu tilning fonetik va morfologik qurilishi, o'zbek tiliga qiyoslab o'rgatilishi ko'zda tutilgan.

Arab tilidan beriladigan bilimlar eski o'zbek tili va yozuvi fanidan olingan bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarni shakl va ma'no jihatidan tahlil qila olish, shuningdek, arab yozuvida bitilgan qo'lyozma manbalarni o'qish va ularni tadqiq qilish imkonini beradi.

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida nashrdan chiqarilgan dasturiga asoslanib tuzib chiqilgan. TVDPI «Sharq tillari va yozuvi» kafedrasining yig'ilishida muhokama qilingan.

2006 yil « » dagi №1-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: fil.fan.nomz. Abdullayev M.

o'qituvchilar: Mansurov S., Siddiqov U.

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent Hamidov Z.

Filologiya fanlari nomzodi Abdulxayrov M.

Kafedra mudiri: fil.fan.nomz.M.Abdullayev

MUQADDIMA

1.1. O`quvchi yoshlarning bilimlari zamon talabi darajasiga etishda fan asoslari bilan qurollantirish, yangi pedagogik texnologiya yutuqlari asosida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Ta`lim to`g`risidagi qonun» talablarini bajarish maqsadida ularning aqliy tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish umumta`lim maktablari oldida turgan vazifa.

Ushbu ishchi dastur «Arab tili» ni o`rganish uchun zarur ma`lumotlar berishga mo`ljallangan. Unda bir qator amaliy mavzular tanlab olingan. Asosan, arab tilining o`ziga xos xususiyatlari, arab tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksis qismlari pedagogik institutlari talabalari uchun sodda uslubda tushuntirib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari talaba bexato o`qish uchun matn ustida ishlash va uni fonetik, morfologik va sintaksis tahlil qilish ko`nikmasini hosil qilish uchun arab tilida yozilgan sodda matnlar E.Talabovning «Arab tili» va S.Bekpo`latovning «Arab tili» kitoblaridan tanlab olingan. Tayanch tushunchalar sifatida yozma va og`zaki topshiriqlar berib borilishi ko`zda tutildi.

1.2. Talaba mazkur fanni o`rganish jarayonida quyidagi bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashi zarur.

- arab tilining somiy tillar guruhiga mansubligi;
- arab tili uch bosqichni qadimgi, klassik va hozirgi zamon arab adabiy tilini o`z ichiga olishi;
- arab tilining o`ziga xos mukammal va murakkab yozuvga ega ekanligi;
- arab tilining yaqin va O`rta arq xalqlari madaniy haytida xalqaro til vazifasida muhim rol` o`ynaganligi;
- arab adabiy tilining fonetik jihatdan unli va undosh fonemalardan tuzilganligi;
- qisqa unli tovushlar esa o`qishni osonlashtirish uchun talaffuz qilinishi o`ngdan chap tomon yozilishi;
- arab tilining yozuv sistemasi undosh tovushlarni va cho`ziq unlilarni ifodalovchi harflar tizimidan iboratligi;
- grammatik qurilish jihatidan arab tili boshqa somiy tillar qatori flektiv tillar guruhiga kirishi;
- arab tilida so`z turkumlari uch guruhga bo`linishi ismlar (ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh), fe`llar (zamon shakllari, nisbatlari hamda ularning vaznlari, mayllari) harflar – yordamchi so`zlar (bog`ovchilar, ko`makchilar, yuklamalar, undalmalar);
- arab tili sintaksisi asosan fe`liy va ismiy gaplardan tuzilganligi, lug`at tilining tarkibini asosan arab so`zlari tashkil qilishi va oz qismi esa boshqa tillarga mansubligi;
- arab tilida sinonim va omonim so`zlar keng tarqalganligi;

- arab tilida yangi soʻzlarning morfologik va sintaktik yoʻl bilan hosil qilinishini bilish;
- tovushlarni toʻgʻri talaffuz qila olish;
- arab tili imlo qoidasiga toʻla rioya qilgan holda erkin va toʻgʻri yozish;
- kichik matnlarni oʻqish va tarjima qila olish.

1.3. Arab tili fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Arab tili oʻzbek tili va adabiyoti, eski oʻzbek yozuvi, tarix va huquq fanlarini oʻzlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbek tili va adabiyoti tarixi bevosita arab tili bilan bogʻliqdir. Talabalar mumtoz adabiyot, tarixga oid asarlarni oʻrganishda arabcha atama va iboralarga duch keladi. Arab tilidan olingan bilim va koʻnikmalar bu oʻrinda juda katta yordam berishi shubhasiz.

1.4. Arab tilini oʻrganishning eng sodda, qulay usulidan foydalanish maqsadida, bu boradagi barcha darslik, qoʻllanma, ilmiy-metodik tavsiyanoma va audio va video kassetalardan (Misr oʻquv markazi hamkorligida) foydalanildi.

1.5. Arab tili fanini oʻqitish semestrlari va uslubiy koʻrsatmalari.
Arab tili kursi oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishida 3-4-kurs mobaynida 81 soatlik, tarix yoʻnalishida 2-3-kurs mobaynida 76 soatlik tajriba mashgʻuloti sifatida oʻtkaziladi.

1.6. Umumiy va oʻquv ishlari boʻyicha hajmi.
Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi 3-kurs, 6-semestrda 41 soat, haftasiga 3 soatdan, 41 soat tajriba, 4-kurs 7-semestrda 40 soat, haftasiga 4 soatdan, tarix yoʻnalishi boʻyicha 3-kurs 5-semestrda 34 soat, haftasiga 2 soatdan, 2-kurs 4-semestr 42 soat, haftasiga 3 soatdan auditoriya mashgʻuloti oʻtkaziladi.

1.7 REYTING JADVALI

Fanga ajratilgan yuqori ball 100; saralash bali 55.

T/r	Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli bo'yicha ballar	Nazorat shaklini o'tkazish vaqti
1	Joriy nazorat	1. Mashg'ulotga qatnashish		
		2. Mashg'ulot mobaynida faollik		
		3. Daftariyot		
		4. Tajriba mashg'ulot topshiriqlarini bajarish		
		5. Mashqlar ustida ishlash		
	JAMI			

2	Yakuniy nazorat	Og`zaki savol-javob, yozma ish, test.		Semestr yakunida
	jami fan bo`yicha			

Ballarning foizlarda ifodalanishi: 86%-100% «a`lo»

71%-85% «yaxshi»

55%-70% «qoniqarli»

0-54% «qoniqarsiz».

2. Mashg`ulotlarning mazmuni

T/r	Mavzular	Jami	Auditoriya soatlariya	Ma`ruza	Amaliy mashg`ulot	Tajriba mashg`uloti	JN, ON, YaN	Mustaqil ish	Vaqt
1	Tovushlar					2			
2	Arab tiliga xos undosh tovushlar					2			
3	Qisqa unli tovushlar					2			
4	Ikkilantiruvchi belgi Sukun, Tanvin, Hamza					2			
5	1,2-mashq					2			
6	Qamariy va shamsiy harflar					2			
7	Morfologiya					2			
8	So`z turkumlari					2			
9	Ot so`z turkumi					2			
10	Kichraytma ot					2			
11	Otlarda son kategoriyasi					2			
12	Olmoshlar, shaxs-son qo`shimchalar, nisbiy o					2			
13	Ism va fe`lga qo`shiluvchi birikma olmoshlar					2			
14	Predloglarga qo`shiluvchi olmoshlar					2			
15	Nisbiy olmoshlar					2			
16	Ko`rsatish olmoshlari					2			
17	Shart olmoshlari					2			
18	Sifat					2			
19	Ravish					2			

20	Adad son					2			
21	Harakat nomi					2			
22	Fe'l					8			
23	Buyruq istak mayli					2			
24	Maqtov va tahqir fe'llar. To'liqsiz fe'llar.					2			
25	Sifatdosh.					2			
26	Qurol, o`rin payt ismlar.					2			
27	Harf					2			
28	So`z birikmalari.					2			
29	Gap, jumlai fe'liy va ismiy.					2			
30	Gap bo`lagi.					2			
31	Qo`shma gap.					2			

Sh-kurs sirtqi bo`lim

T/r	Mavzular	Jami	Auditoriya soatlariya	Ma`ruza	Amaliy mashg`ulot	Tajriba mashg`uloti	JN, ON, YaN	Mustaqil ish	Vaqt
1	Arab tilidagi tovushlar uchun qabul qilingan transkripsion belgilar.				2				
2	Unli va undosh tovushlar.				2				
3	Tanvin, hamza, al-artikli.				2				
4	So`z turkumlari, jins kategoriyasi.				4				
5	So`z o`zagi va noo`zak harflar.				2				
6	Lug`at ustida ishlash.				2				
7	Ism va uning turlari, so`z vaznlari.				2				
8	Otlarda son kategoriyasi va ot kesim fe'l kesim.				2				

9	Sifat, kelishiklar, predloglar.				2				
10	Olmoshlar. Matn ustida ishlash.				2				
11	Fe'l o'zklari, o'tgan zamon fe'li.				2				
12	Hozirgi kelasi zamon va buyruq fe'l turlari.				2				
13	Harflar va predloglar hamda gapdagi vazifasi.				2				
14	Sodda va qo'shma gaplar.				2				
15	Lug'at ustida ishlash.				2				
16	Matn ustida ishlash.				2				

3. Tajriba mashg'uloti mavzulari va ularning mazmuni

(O'zbek filologiyasi III-1Y kurs, Y1-YII-VIII semestr, tarix II-III kurs, III-1Y-semestr)

1-mavzu: Tovushlar (2 soat)

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub. Uning grammatik normalari, asosan, fleksiz (ishtiqoq) vositasida so'z yasash usuli bilan paydo bo'lgan. Arab tilida o'ziga xos yozuv sistemasi bo'lib, unda undosh va cho'ziq unlilargina o'z ifodasini topgan. Harflar o'ngdan chapga qarab yoziladi.

Adabiyotlar: (1, 7-10).

2-mavzu: Arab tilitga xos undosh tovushlar (2 soat)

Arab alifbosida 28 ta harf bor. Ular yordamida 31 tovush (28 undosh va 3 cho'ziq unli) ifodalanadi.

Adabiyotlar: (1, 11-14).

3-mavzu: Qisqa unli tovushlar (2 soat)

Arab tilida 3 ta unli tovush mavjud: (“a” , “i” , “u”). Bularning har biri o'z navbatida qisqa va cho'ziq unlilarga bo'linadi.

Masalan:

- yurak. Arab tilida 19 ta

Shakl bo'lib, umumiy va 8 ta xususiy undosh bo'lib, ular tovush hosil qilish o'rniga ko'ra til oldi, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra jarangli: masalan:

pashsha, -deraza.

Adabiyotlar: (1, 9-11).

4-mavzu: Ikkilantiruvchi belgi. Sukun, tanvin, hamza (2 soat).

Arab tilida aksariy so'zlar “-un”; “-in” yoki “-an” qo'shimchasi bilan tugaydi. Masalan: Ikki xil hamza mavjud: 1) Qat'iy, ya'ni talaffuz qilinadigan hamza tovushi:

Masalan:

2) Vaslali hamza: o'zni kelganda talaffuz qilinmaydi, ya'ni undan oldingi undosh, undan keyingi undoshga bog'lanib ketaveradi.

Masalan:

Ikkala hamza ham "Al-" artikulini olganida farqlanadi.

Adabiyotlar: (1, 8-9).

5-mavzu: 1-2-mashq (2 soat)

Mashqni arab tiliga tarjima qilish va talaffuzi.

Adabiyotlar: (III, 3).

6-mavzu: Qamariy va shamsiy harflar (2 soat)

Arab alifbosida 28 ta harf bo'lib, ularning 14 tasi qamariy, 14 tasi shamsiy harflardir.

Adabiyotlar: (II, 10-11).

7-mavzu: Morfologiya (2 soat)

Arab tili sarf fanida o'zidan biror ma'noni anglatgan so'zga kalima deyiladi. O'zbek tilidagi kabi kalimalar so'zning tub ya'ni o'zak harflariga chetdan qo'shimcha harflar qo'shish orqali yasaladi.

Adabiyotlar: (II, 11-12).

8-mavzu: So'z turkumlari (2 soat)

Arab tilshunosligida kalimalar us qismga bo'linadi: ism, fe'l va harflar. Ism, ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, sifatdoshtlar modal va taqlid so'zlarga kiradi.

Adabiyotlar: (1, 25-27; II, 14).

9-mavzu: Ot so'z turkumlari (2 soat)

Arab tilida otlar ikki jinsga-muzakkar va muannasga ajratiladi. Muannas jinsining grammatik belgisi so'z oxiridagi «atun» qo'shimchasidir.

Adabiyotlar: (1, 29; II, 14-16).

10. Kichraytirma ot (2 soat)

O'zbek tilida -cha, -choq, -chak affikslari yordamida kichraytirma otlar hosil bo'lganidek arab tilida ham kichraytirma otlarning hosil bo'lish vazinlari mavjud. Ular uch o'zakli so'zlardan «fuaylun» vaznida hosil bo'ladi.

Adabiyotlar: (II, 15-16).

11-mavzu: Otlarda son kategoriyasi (2 soat)

Arab tilida otlar uch grammatik songa ega bo`ladi. Birlik, ikkilik va ko`plik sonlar. Otlarda ikkilik son birlikdagi so`z oxiridagi tanvin o`rniga- ani qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi. Masalan: bayt-baytoni.

Adabiyotlar: (I, 30-31; II, 16-17).

12-mavzu: Olmoshlar, shaxs-son qo`shimchalari olmoshi (2 soat)

Alohida yoziladigan olmoshlar –zamoyir va –munfasilalardir. Bu zamirlar ism-fe'lga qo`shilib o`zbek tilshunosligidagi «shaxs-son qo`shimchalari» deb yoziladi.

Adabiyotlar: (P, 18-19).

13-mavzu: Ism va fe'lga qo`shiluvchi birikma olmoshlari (2 soat)

Ism va fe'lga qo`shiluvchi birikma olmoshlari zamoyir va muttasilalar- bu zamirlar ism va fe'lga qo`shilib keladi. 7-mashq.

Adabiyotlar: (II, 19-20).

14-mavzu: Predloglarga qo`shiluvchi olmoshlar (2 soat)

Mashq -8, 9. Morfologik tahlil qilish.

Adabiyotlar: (II, 20-21).

15-mavzu: Nisbiy olmoshlar (2 soat)

Nisbiy olmoshlar al-asmai mavsula. Masalan: Men bu talabaga dars beradigan kishiman – al laziy. Sen bu talabaga dars beradigan ayolsan – al latiy.

Adabiyotlar: (II, 20-22).

16-mavzu: Ko`rsatish olmoshi (2 soat)

Al-asmaul ishora. Asmoiy ishoralar va qolgan olmoshlar gapda bosh bo`lak va ikkinchi darajali bo`lak vazifasida keladi.

Adabiyotlar: (II, 22).

17-mavzu: Shart olmoshlari (2 soat)

Al-asmaush shart. 9-mashq. Kim oliylikni tilasa kechalarni bedor o`tkazadi (morfologik tahlil qilish).

Adabiyotlar: (II, 21-23).

18-mavzu: Sifat (2 soat)

Predmetning belgisini bildiruvchi bu so`z turkumi arab tilida asosan uch undosh o`zakli so`zlardan iboratdir. Sifatlar ham otlar kabi muzakkar va muannas jinslarga, birlik, ikkilik, ko`plik sonlarga ega. Sifatdagi birlik, ikkilik sonlarning hosil bo`lish usuli otlardan farq qilmaydi. Sifatlarning 20 dan ortiq vazni mavjud.

Adabiyotlar: (II, 40-43; P, 23).

19-mavzu: Ravish (2 soat)

Zarfun – asl ravishlar gapda oʻzgarishga uchramaydi. Hosila ravishlar esa oʻzi aloqador boʻlgan ismdan uning aniq yoki noaniq holatidan tushum kelishigida yoki biror koʻmakchi orqali qaratqich kelishigida keladi.

Adabiyotlar: (II, 25-26).

20-mavzu: Adad son (2 soat)

Al-asmoul adad. Son va sonli soʻz birikmalari arab tilida oʻzining qonuniyatlariga koʻra boshqa soʻz birikmalari ichida alohida oʻrin tutib, sanoq son va sanalmish orasidagi munosabat turlicha grammatik soʻz birikmalari sifatida shakllanadi. 13-mashq

Adabiyotlar: (II, 26-27).

21-mavzu: Harakat nomi (2 soat)

Ish-harakat maʼnosini anglatgan ismga «masdar» deyiladi. Arab tilida esa masdarlar boshqa ismlardan farqlanadigan biror belgiga ega emas, faqat oʻzbe ktilig tarjima qilinganda soʻz oxiri «-moq» va «ish» qoʻshimchalarini qabul qiladi va yana masdarlar maʼlum vaznlarga boʻlinadi.

Adabiyotlar: (II, 28).

22-mavzu: Feʼl (8 soat)

Feʼl arab tilshunosligida uch xil boʻladi: moziy (oʻtgan zamon), muzoreʼ (hozirgi kelasi zamon) va amr (buyruq-istak mayli). «Kana» feʼlining maʼnosi boʻlmoqdir.

Ot yoki sifat bilan birga kelib, oʻtgan yoki kelasi zamonda turgan qoʻshma feʼlning yordamchi feʼli vazifasini bunda bu feʼl bilan kelgan ot yoki sifat noaniq holatda ega bilan jinsda va sonda moslashgani holda tushum kelishigida keladi. Masalan: «Kanat tolibu marizan» - Student kasal edi. 16-17 mashq (morfologik tahlil qilish).

Adabiyotlar: (1, 77-78; II, 29-30).

23-mavzu: Buyruq-istak mayli (2 soat)

Feʼli-amr. Bu feʼl olti sigʻada keladi. Sulosiy feʼllardan buyruq feʼli uch vaznda keladi. Yoz, oʻyna, ur yaʼni «uktub», «ilʼab», «izrib».

Adabiyotlar: (II, 35-37).

24-mavzu: Maqtov va tahqir feʼllar. Toʻliqsiz feʼllar (2 soat)

Bu feʼllar ish-harakat yoki holat-zamonni bildirmay, balki bu soʻzlar jinsda feʼl kabi tuslanganligi uchun arab tili grammatikasida feʼl deb atash qabul qilingan. Masalan: U qanday ham yaxshi shoir! – Neʼma shoiran xuva.

Adabiyotlar: (II, 38).

25-mavzu: Sifatdosh (2 soat)

Sifatdosh arab tilida fe'ldan hosil bo'lgan va o'zida ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Arab tilidagi sifatdoshlarning o'zbek tillaridagidan farqi shuki o'zbe kttilida ular zamonga qarab o'zgarsa, arab tilida barcha zamonlar uchun bir xil shaklga ega bo'ladi.

Adabiyotlar: (II, 39-40).

26-mavzu: Qurol, o`rin payt ismlar (2 soat)

Ismi olat. Ish-harakatni amalga oshirish vositasini bildiruvchi otlar qurol otlari deyiladi.

Ismi zamon va makon. Ish-harakatning bajarilish o`rni yoki paytini bildiruvchi so`zlar o`rin va payt ismlari deyiladi. Bu ikki ism arab tilida bir vazn asosida yasaladi va bir vaqtning o`zida ham o`rinni ham paytni bildirib keladi.

Adabiyotlar: (II, 41-42).

27-mavzu: Harf (2 soat)

Al-harf. Arab tilshunosligida harf «kalimasiga o'zbek tilidagi yordamchi so`z turkumi va predloglar kiradi. Harflarning soni yuzdan oshmaydi.

Adabiyotlar: (II, 43-44).

28-mavzu: So`z birikmalari (2 soat)

Sifatlovchi so`z birikmalari. Sifatlovchi so`z birikmada sifatlovchi bilan sifatlanmish holat, son, jins kelishikda moslashib keladi. Arab tilida sifatlanish (mavsum) uchun sifatlovchi (sifat) vazifasida fe'l yoki fe'l bilan boshlanuvchi so`z birikmasi yoki bir butun jumla kelishi mumkin. Bu toifa sifatlovchilar uchun «ismi movsul» det ataluvchi nisbiy olmoshdir.

Adabiyotlar: (II, 44-45).

29-mavzu: Gap, jumlai fe'li va ismi (2 soat)

Al-kalamul jumla. Arab tilida gap ikki qismga al-jumlai ismi va fe'liyga bo`linadi. Jumlai ismiy ega va kesimdan tashkil topadi. Ega aniq holatda, kesim esa noaniq yoki jumla holatda bo`lishi mumkin.

Adabiyotlar: (II, 46-47).

Adabiyotlar: (II, 18-19).

30-mavzu: Gap bo`lagi (2 soat)

Bosh bo`lak- muftado (ega) va xabar (kesim) va ikkinchi darajali bo`lagi mavsum-sifat (aniqlovchi), ismi maf`ul (to`ldiruvchi) va hol. Ma'lumki arab tilida uch kelishik bo`lib, bosh kelishik e`robi raf` (damma)-muftado, xabar, foil, noibi foil; qaratqich kelishigi e`robi jar (kasra) –izofa; tushum kelishigi – nasb (fatha)-ismi maf`ullardir.

Adabiyotlar: (II, 49-50).

31-mavzu: Qo'shma gap (2 soat)

Al-jumlatul murakkab. Qo'shma gaplar ikkiga bo'linadi.

1. Bog'langan qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng bog'lanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi. Bu gaplar o'zaro bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. 1-matn.

Adabiyotlar: (II, 51-55).

Amaliy mashg'ulot mavzulari va ularning mazmuni

(o'zbek filologiyasi 1Y–kurs, VIII-semestr, tarix fakulteti 1Y-Y-kurs, VIII-1X-semestr)

1-mavzu: Arab tilidagi tovushlar uchun qabul qilingan transkripsion belgilar (2 soat)

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub. Uning grammatik normalari, asosan, fleksiz (ishtiyoq) vositasida so'z yasash usuli bilan paydo bo'lgan. Arab tilida o'ziga xos yozuv sistemasi bo'lib, unda undosh va cho'ziq unlilargina o'z ifodasini topgan. Harflar o'ngdan chapga qarab yoziladi. Arab alifbosida 28 ta harf bor. Ular yordamida 31 tovush (28 undosh va 3 cho'ziq unli) ifodpalanadi.

Adabiyotlar: (1, 11-14).

2-mavzu: Unli va undosh tovushlar (2 soat)

Arab tilida 3 ta unli tovush mavjud: (“a” , “i” , “u”). Bularning har biri o'z navbatida qisqa va cho'ziq unlilarga bo'linadi.

Masalan:

- yurak. Arab tilida 19 ta

Shakl bo'lib, umumiy va 8 ta xususiy undosh bo'lib, ular tovush hosil qilish o'rniga ko'ra til oldi, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra jarangli: masalan: -pashsha, -deraza.

Adabiyotlar: (II, 9-11).

3-mavzu: Tanvin, hamza al-artikli (2 soat)

Arab tilida aksariy so'zlar “-un”; “-in” yoki “-an” qo'shimchasi bilan tugaydi. Masalan:

Ikki xil hamza mavjud: 1) Qat'iy, ya'ni talaffuz qilinadigan hamza tovushi:

Masalan:

2) Vaslali hamza: o'zni kelganda talaffuz qilinmaydi, ya'ni undan oldingi undosh, undan keyingi undoshga bog'lanib ketaveradi.

Masalan:

Ikkala hamza ham “Al-“ artikulini olganida farqlanadi.

Adabiyotlar: (1, 23-24; II, 11-13).

4-mavzu: Jins kategoriyasi (4 soat)

Soʻz turkumlari “al-Kalimatu” arab tilida 3 tadir. Ism, feʼl va harf. –ism. Bu soʻz turkumiga oʻzbek tilidagi ot, sifat, son, olmosh, ravish, feʼlning harakt nomi (masdar); sifatdosh kabi funktsional formalari, ayrim koʻmakchilar, modal soʻzlar kiradi. –feʼl. Bu turkumga feʼlning barcha zamonlari, mayllari, nisbatlari, boʻlishli va boʻlishsiz shakllari kiradi. - harf. Bu turkumga aniqlik artikli, predloglar, turli xil yuklamalar, umuman yordamchi soʻzlar kiradi.

Adabiyotlar: (II, 14-15).

5-mavzu: Soʻz oʻzagi va nooʻzak harflar (2 soat)

Nutq davomida gap baʼzan soʻzlovchi va tinglovchiga oldindan maʼlum boʻlgan narsa yoki shaxs haqida boradi. U arab tilida artikli bilan boshlanadi. M: nomaʼlum odam, - maʼlum odam. Arab tilida otlar ikki jinsga muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsining grammatik belgisi soʻz oxirida –atun, -atu qoʻshimchasi -xona.

Adabiyotlar: (1, 31-34).

6-mavzu: Ism va uning turlari (2 soat)

Arab tilida soʻz oʻzagi undosh tovushlardagina hosil boʻladi. Oʻzak undoshlarning oldiga, orqasiga unli va nooʻzak undoshlarning qoʻshilishidan soʻz hosil boʻladi.

Masalan: kataba – yozdi (mz)
yoklubu – yozadi (mz)
kotibun – yozuvchi (mz) va hok.

Soʻz vaznlari harflarini olishgan. Agar soʻz toʻrt yoki besh undoshli harfdan iborat boʻlsa, toʻrtinchi va beshinchi undoshlarini ifodalash uchun ham harfi olinadi. M: -dahraja, -faʼlala.

Adabiyotlar: (1, 25-26, 34-35).

7-mavzu: Otlarda son kategoriyasi va ot kesim feʼl, feʼl kesim (2 soat)

Arab tilida otlar uch grammatik songa ega: birlik, ikkilik va koʻplik sonlar. Ikkilik sonlar soʻz oxirida damma oʻrniga -ani qoʻshimchasi bilan bogʻlanadi. - bayboni – 2 uy.

Otlarda koʻplik son oʻzining morfologik xususiyatiga koʻra ikki xil boʻladi:

1. Toʻgʻri koʻplik (-jamʼun salimun)
2. Siniq koʻplik (-jamʼun muqassarun)

Adabiyotlar: (1, 37-38).

8-mavzu: Sifat, kelishiklar, predloglar (2 soat)

Moslashgan aniqlovchi odatda predmetning belgisini bildiruvchi sifatlov aniqlovchidir. Aniqlovchi va aniqlashmin to`rt jihatdan moslanadi: jinsda, sonda, holatda va kelishikda.

M: -baytoni jadidani.

Adabiyotlar: (1, 42-44).

9-mavzu: Olmoshlar (2 soat)

Arab tilida ism guruhiga kiruvchi so`zlarda uch kishilik mavjud: bosh kelishik, qaratqich kelishigi va tushum kelishigi.

Kelishiklar	Noaniqlik holati	Aniqlik holati
Bosh kelishigi	-un	-u
Qaratqich kelishigi	-in	-i
Tushum kelishigi	- an	- a
Tushum kelishigi mz-	- in	- a
Tushum kelishigi mn.		

Bu turlanish so`z oxirida “e`rob deb ataladi. Ism yoki fe`l “mo``rob” deb yuritiladi.

Adabiyotlar: (1, 66-68).

10-mavzu: Fe`l o`zaklari. O`tgan zamon fe`li (2 soat)

Predloglar arab tili yordamchi so`z turkumining kattagina qismini tashkil qiladi. Bu tilda kelishiklar soni juda oz bo`lganligi sababli, predmet, voqea-hodisaning vaqtga, o`rniga, munosabati, chegaralashish va boshqa turli munosabatlar, predloglar yordamida ifodalanadi.

Adabiyotlar: (1, 77-78; II, 29-30).

11-mavzu: Hozirgi-kelasi zamon va buyruq fe`l turlari (2 soat)

Hozirgi zamon fe`lning o`zagiga alif yo`t, nun harflarini birini avvaliga keltirish bilan hosil bo`ladi. Kelasi zamonga esa sin harfini qo`shish bilan hosil bo`ladi. Buyruq fe`l turlari ikkiga bo`linadi: lomlik va lomsiz.

Adabiyotlar: (II, 35-37).

12-mavzu: Harflar va predloglar hamda gapdagi vazifasi (2 soat)

Al-harf. Arab tilshunosligida harf «kalimasiga o`zbek tilidagi yordamchi so`z turkumi va predloglar kiradi. Harflarning soni yuzdan oshmaydi.

Adabiyotlar: (II, 43-44).

13-mavzu: Sodda va qo'shma gaplar (2 soat)

Al-jumlatul murakkab. Qo'shma gaplar ikkiga bo'linadi.

1. Bog'langan qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng bog'lanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi. Bu gaplar o'zaro bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. 1-matn.

Adabiyotlar: (II, 51-52).

14-mavzu: Lug'at ustida ishlash (2 soat)

Adabiyotlar: (III, 24-27).

15-mavzu: Matn ustida ishlash (2 soat)

O'qing arab tilidan o'zbek tiliga tarjima va talaffuz qiling

Adabiyotlar: (IY, 210-211).

16-mavzu: Muxovara. So'zlashuv (2 soat)

Adabiyotlar: (1Y, 77).

“ARAB TILI” FANIDAN YOZMA ISH VARIANTLARI

1. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Daftar qaerda? Chizg'ich qaerda? Bu qalamdir. Bu qog'ozdir. Siyohdonni ber.

Kitobni ol. Bu nima? – Taxta. Pero qaerda? Bosmani ol. Daftarni ber. Qog'oz qaerda? Qalam qaerda.

2. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Bu kursidir. Bu stoldir. Bu nima? – daftar. Bu nima? – kursi. O'qituvchi qaerda? – sinfda. O'quvchi yozayapti. O'qovchi darsni o'qiyapti. Daftarni ol. Bosma qaerda? – bu erda. Abdurahmon darsni o'qiyapti. Abudlloh yozayapti. Abdulloh qaerda? – sinfda darsni o'qiyapti. Ruchka qaerda? – bu erda. O'chirg'ich qaerda?

1. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Qalamtaroshni ber. Kursiga o'tir. Xonaga kir. Partaga o'tir. Kitobni o'qi. Bu kim? Bu nima? – daftar. Darsni o'qi. Bu erda kim o'qiyapti. Chizg'ich qaerda? – bu erda. Kim yozayapti? Kim o'qiyapti? Kim fahmlayapti? Darsni kim tushunayapti? Xonaga kim kirayapti? Salim darsni o'qiyapti.

2. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Piyola. Pero. O`chirg`ich. Choy. Qand. Daftar qaerda. O`quvchi kravatda uxlayapti. Usmon ovqatni eyapti. Choyni ich. Ovqatni e. Mahmud chizg`ichni ber. Ahmad bosmani ol. Bu kim? Bu nima? Bo`r bilan yoz. Qalam bilan daftarga yoz. O`quvchi qaerda? O`qituvchi qaerda? Bu bola qahvani ichayapti.

3. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Farid darsni yodlayapti. Muhammad ovqatni eyapti. Bu erga kel. Darsni yodla. Bola kravatda uxlayapti. Qalamtaroshni ol. Zalga kir. Salim qaerda. U erda darsni o`qiyapti. Bu eshikdir. Bu darvozadir. Kitob qaerda? – shkafda. O`quvchi go`shtni eyapti. Said nonni eyapti. Said bu erga kel.

4. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Ot, sigir, toychoq, buzoq. Bu nima? Kitob. Ot yuguryapti. Sigir qaerda – bu Erda. U darsni o`qiyapti. Sen darsni o`qiyapsan. Farid yugur. Sen zalga kirayapsan. Men xonadan chiqayapman. U choyni ichayapti. Sae choyni ichayapsan. Farid qaerda - hovlida. O`qituvchi qaerda. Zaldan chiq. Xo`roz qichqirayapti. Bu otdir. Ot qaerda. Buzoq yugurayapti.

7. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

Koptokni ol. Bu erga o`tir. Partaga o`tir. Sen derazadan qarayapsan. Men derazadan qarayapman. Baliq suvda suzayapti. Sinfga kir. Men o`tirayapman. Said darsdan keyin koptok o`yna. Shisha qaerda? Bu erda shkafda. Men hovlida yugurayapman. Mushuk go`shtni eyapti. Darsdan keyin o`ynaysanmi? - Ha o`ynayman. Derazadan qaradingmi? Buzoq suvni ichayapti.

8. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling

Bu Orifning taxtasi. Bu mening qalamim. Chizg`ichingni ol. Qalamimni ber. Darsingni o`qi. Soatingni ol. Farid darsini o`qiyapti. Salim singlisini yaxshi ko`radi. Said, darsingni yodla. Salim qaerda? Kravotda uxlayapti. Otam qaerda? – Uyda. Akam qaerda? – Hovlida koptok o`ynayapti. Bu mening o`quvchim. Bu sening o`quvching.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-P jild, T., 1999.
2. M.Abdullayev “Arab tili” dan o`quv qo`llanma. 2006 yil.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. E.Talabov. Arab tili. Toshkent. “O`qituvchi”. 1993.
2. Bekpo`latov S. Boshlang`ich grammatika. Qozon, 1916.
3. B.Xolidov. Uchebnik arabskogo yazika. Toshkent, O`qituvchi. 1977.
4. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar'. M., 1985.